


FARG'ONA VILOYATIDA DEMOGRAFIK HOLAT (2020-yil yanvar- sentabr, dastlabki ma'lumot)

Doimiy aholi soni. Farg'ona viloyatining doimiy aholisi soni 2020-yil 1-oktabr holatiga ko'ra, 3802,7 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 50,7 ming kishiga yoki 1,3 % ga o'sdi.




Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2020-yil 1-oktabr holatiga, ming kishi)




Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2020-yil 1-oktyabr holatiga eng ko'p aholi soni Farg'ona shahrida 292,5 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi (7,7 %) va Quva tumanida 260,4 ming kishini (6,8 %), aksincha eng kam aholi soni Quvasoy shahrida 94,5 ming kishi (2,5 %) va So'x tumanida 78,6 ming kishini (2,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2019-yilning mos davriga nisbatan Qo'shtepa, Bog'dod va Dang'ara tumanlarida 2,2 % ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati, Qo'qon shaharlarida 1,5 % ni, Beshariq tumanida 1,6 % ni, tashkil etdi.


Shahar qishloq aholisining jami aholiga nisbatan ulushi, % da




■ Shahar ■ Qishloq



Erkaklar va ayollarning jami aholiga nisbatan ulushi, % da




■ Erkaklar ■ Ayollar




Tug'ilish. 2020- yilning yanvar- sentabr oylarida 68,5 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 24,2 promilleni tashkil etdi hamda 2019- yilning mos davriga nisbatan 1,3 promillega oshganligi kuzatildi (2019- yilning yanvar- oktabr oylarida 22,9 promille bo'lgan).

Hududlar kesimida tug'ilish koeffitsiyenti (2020- yil yanvar- sentabr 1000 aholiga nisbatan, promille)




Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Farg'ona viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni
(2020- yil yanvar- sentabr oylari bo'yicha, ming kishi)



Farg'ona viloyati bo'yicha tirik tug'ilganlar soni
(yanvar- sentabr)




Ming kishi

Nikoh. 2020- yilning yanvar- sentabr oylarida FHDYO organlari tomonidan 21,4 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 7,6 promilleni tashkil etdi.

Uchko`prik tumanida (kamayish sur`ati 14,3 foiz), Qo`qon shahar (kamayish sur`ati 12,6 foiz) kamayish holatlari yuz berdi

Farg'ona viloyati bo'yicha nikohlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar- sentabr, ming)




Hududlar kesimida tuzilgan nikoh koeffitsiyenti (2020- yil yanvar- sentabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)




Nikohdan ajralishlar. 2020- yilning yanvar- sentabr oylarida 2,0 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 0,7 promilleni tashkil etdi.

Farg'ona viloyati bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni to'g'risida ma'lumot
(yanvar- sentabr, ming)



Hududlar kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti
(2020- yil yanvar- sentabr holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



Migratsiya. 2020-yil yanvar- sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 6342 kishini tashkil etdi



2020-yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib ketganlar soni esa 10849 kishini tashkil etadi.

Migratsiya saldosini minus 4507 kishi bo'lib, 2019-yilning o'tgan shu davrida minus 1381 kishi bo'lgan.

Aholi migratsiyasi (kishida)			
	2019- yil yanvar-sentabr	2020- yil yanvar-sentabr	
Ko'chib kelganlar	9389	6342	O'tgan yilning shu davriga nisbatan ko'chib kelganlar soni 6342 kishi, ko'chib ketganlar soni esa 10849 kishi . 2020-yilning 9 oyi davomida migratsiya saldosining eng yuqori kamayish darajasi Beshariq tumani (minus 717 kishi) va eng yuqori o'sish darajasi Farg'ona shaharida 508 kishi) qayd etildi.
Ko'chib ketganlar	10770	10849	
Migratsiya saldosini	-1381	-4507	

Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi.

tel:(373) 249-87-32